



**QISHLOQ XO'JALIGIDA GO'SHT VA GO'SHT
MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNING HOZIRGI
HOLATI TAHLILI**

¹Fayziyev Oybek Raximovich

Toshkent davlat agrar universiteti, "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit"
kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD), fayziev.oybek@mail.ru

²Saidova Dildora Nurmatovna

Toshkent davlat agrar universiteti, "Agroiqtisodiyot va turizm"
kafedrası dotsenti, i.f.n.,

³Sheraliyeva Sadoqatxon Xaytboy qizi

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7483911>

ARTICLE INFO

Received: 14th December 2022

Accepted: 25th December 2022

Online: 26th December 2022

KEY WORDS

Ishlab chiqarish, go'sht va go'sht mahsulotlari, qoramol go'shti, qo'y go'shti, echki go'shti.

ABSTRACT

Maqolada go'sh va go'sh mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni va uning mamlakatimizdagi hozirgi holati tahlil qilingan. Go'sht va uni ishlab chiqarish jarayonida etibor berilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar aytilib statistika tahlil natijalari bayon qilingan.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab oziq-ovqat xavfsizligi masalalari O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida markaziy o'rinlardan birida turadi. Endilikda aholi turmush farovonligini va sifatini yanada oshirish, aholini oziq-ovqat bilan to'laqonli ta'minlash masalalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini va ustuvor yo'nalishlarini ilmiy nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zarurati mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab berdi.

Chorvachilik va go'sht ishlab chiqarish – qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. U muhim ozuqa mahsulotlarini – sut, go'sht, tuxum, asal, baliq kabi chorvachilikdan olinadigan oqsil moddasi

manbasi, sanoat ishlab chiqarishi, qayta ishlovchi sanoat uchun xomashyo (sut, go'sht, teri, jun, pilla va boshqalar) va o'simlikchilik uchun organik o'g'itlar tayyorlab berish bilan xizmat qiladi.

Ushbu sohasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida respublikamizda 2005 yilda qoramollar bosh soni 6 mln 571,8 ming boshdan 2017 yilda 12 mln 414,7 ming boshga yoki 188,9 foizga, shundan sigirlar soni mos ravishda 2 mln 821,3 ming boshdan 4 mln 418,3 ming boshga yoki 156,6 foizga, qo'y va echkilar soni 11 mln 351,9 ming boshdan 20 mln 680,5 ming boshga yoki 182,2 foizga, parrandalar soni esa 18 mln 775,7 ming boshdan 71 mln 343,4 ming boshga yoki 3,8 martaga o'sdi¹.

¹ "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" statistik to'plam. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, 2005-2017 yy.



Ma'lumki, har qanday tarmoqni innovatsion rivojlantirish, avvalambor, ishlab chiqarishni intensivlashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, takomillashgan, innovatsion texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni, shuningdek, mehnatni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalanish natijasida mavjud resurslardan samarali va to'liq foydalanish hamda mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydi.²

Chorvachilik, parrandachilik umuman olganda go'sh ishlab chiqarishni ko'paytirishda innovatsion rivojlantirishning uch yo'nalishi mavjud bo'lib, ular:

- Intensiv (o'z tajribasiga asoslangan);
- Intensiv (xorij tajribasiga asoslangan);
- Ekstensiv (qishloq aholisining an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan o'z chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini saqlab qolish)³.

Chorvachilikda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari quyidagilar kiradi⁴:

- a) ishlab chiqarishning tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqligi;
- b) ishlab chiqarish jarayonida biologik aktivlarni ishlatish - o'simliklar va hayvonlar, yerlar;
- c) innovatsion jarayonlarni boshqarishning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

² Xasanov Abray Allayarovich, "Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish va unda xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning roli" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil 1-b

³ Рупошев А.Р. Инновационные направления развития отрасли животноводства// ж. Ваш сельский консультант, 2011, №2, с. 3-7.

⁴ Добровольский В.В. Актуальные проблемы и возможные перспективы развития животноводства в Украине с помощью инноваций.

d) mazkur sohada ishlab chiqarish va moliyaviy tavakkalchilikning boshqa sohalarga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi. Chorvachilikda innovatsion rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning uslublari hamda mintaqacha chorvachiligini innovatsiya asosida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil etilganda⁵, chorvachilik tarmog'ini innovatsion rivojlantirish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi o'sishi hamda bu jarayonni jadallashtirish maqsadida ishlanma va intensivlashtirishning yangi vositalarini qo'llashni rag'batlantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligi aniqlandi.

Go'sh ishlab chiqarish sohasini innovatsion rivojlantirishda foydalaniladigan samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Sohada olingan samaradan kelib chiqqan holda samaradorlikning texnik-texnologik, biologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik ko'rinishlari mavjud⁶.

Chorvachilik sohasini inonovatsion rivojlantirish samaradorlik ko'rsatkichlari olingan samara turidan kelib chiqqan holda tizimlashtiriladi va turlicha xarajatlar bilan solishtiriladi. Chorvachilik sohasida samaradorlik turlari tarkibida biologik samaradorlik alohida ahamiyat kasb etib, chorvachilikda mahsuldorlikning, sarflangan ozuqa hajmiga nisbatan olingan

⁵ Кузмицкая А.А., Бабьяк М.А., Бабьяк Е.Е. Опыт инновационного развития животноводства в Брянской области//Вестник Брянской государственной сельскохозяйственной академии, 2013, №5, С.22-29.

⁶ Артемова Е. Экономические аспекты инновационного развития животноводства (теория и практика): автореф. дисс. докт. экон. наук//Е.Артемова. – Краснодар, 2008. – 46 с.



mahsulot hajmining oshishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda ushbu sohani rivojlanish va go'sht ishlab chiqarishni ko'paytirishda innovatsion faoliyatning texnik-texnologik samaradorligi bir shartli chorva mol hisobiga chorvachilik mahsulot hajmining ko'payishi, fond va energetik resurlar sig'iminining kamayishi bilan aniqlanadi. Ushbu sohada tub islohot va istiqbolli rejalarning amalga oshirilishi oziq-ovqat xavfsizligida muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan mamlakatimizning import ulushuni kamaytirib eksport salohiyati ham oshadi, tabiiyki ushbu mahsulotga bo'lgan talabning qondirilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning arzonlashuviga ham zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Go'sh ishlab chiqarishning hajmini oshirish uchun avvalo ushbu korxonalarni zamonaviy va jahon standartlariga mos

keladigan asbob-uskunalar bilan taminlash lozimdir.

Respublikamizda aholi iste'mol qiladigan go'shtning eng asosiy qismini 60 % dan ko'prog'ini qoramol go'shti tashkil qiladi. Qolgan qismini boshqa chorva hayvonlari qo'y, echki, parranda, ot va boshqalar. Hayvonlarning go'sht mahsuldorligi miqdor (son) va sifat ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR


Shu sababli biz xalqimiz farovonligi yo'lida oziq-ovqat tarkibidagi eng zarur mahsulotlardan nolgan go'shning dasturxonimizda serob bo'lishi tarafdorimiz. Shular qatorida sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud.

№	Yillar	Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	Sut, ming tonna	Tuxum, mln. dona	Asal, tonna	Qirqib olingan jun	Olingan qorako'l teri, ming dona	Pilla, tonna
1	2017 y.	2 286,8	10 047,9	6 332,7	11 737,6	36 360	1 075,1	12 480,3
2	2018 y.	2 430,5	10 466,4	7 459,3	12 578,4	34 615	1 085,2	17 912,3
3	2019 y.	2 473,6	10 714,3	7 771,2	13 001,7	35 115	1 150,7	21 374,1
4	2020 y.	2 519,6	10 976,9	7 781,2	13 357,8	35 422	1 152,1	20 941,9
5	2021 y.	2 635,0	11 274,0	7 788,0	14 067,0	36 345	1 252,0	22 769,9
6	2017 yilga nisbatan, foizda	115,2	112,2	123,0	119,8	100,0	116,5	182,4

1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda barcha toifadagi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risida ma'lumot

Davlat rahbarining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini

yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va ayni paytda ishlab chiqilayotgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi shu nuqtai-nazardan dolzarbdir.



3-rasm. Hududlar bo'yicha go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbekistonda go'sh va go'sh mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada iyojlantirish uchun quyidagilarni taklif etmoqchimiz:

- ❖ oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, saqlash va sotish sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish;
- ❖ go'sht mahsulotlarini yetkazib berish sohasini barqaror rivojlantirish, mahsulot

ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;

- ❖ asosiy turdagi go'sht mahsulotlari va xom-ashyoni ichki ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish;
- ❖ aholi keng qatlamlarining go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabini mahsulot turlari, hajmi va sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlash darajasini oshirishdan iboratdir.

References:



1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.//Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.
2. Jonixonov M., Rahmonov S. Oziq-ovqat dasturi: mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiyot barqarorligi va farovonlikning mustahkam asosi.//Xalq so'zi, 2014 yil 7-iyun.
3. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" statistik to'plam. –Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, 2005-2017 yu.
4. Рупошев А.Р. Инноватсионные направлениуа развитиуа отрасли животноводства// ж. Ваш селский консультант, 2011, №2, с. 3-7.
5. Доброволский В.В. Актуальные проблемы и возможные перспективы развитиуа животноводства в Украине с помощью инноватсий.
6. Кузмицкауа А.А., Бабуак М.А., Бабуак Е.Е. Опыт инноватсионного развитиуа животноводства в Бруанской области//Вестник Бруанской государственной селскохозуайственной академии, 2013, №5, С.22-29.
7. Артемова Е. Экономические аспекты инноватсионного развитиуа животноводства (теориуа и практика): автореф. дисс. докт. экон. наук//Е.Артемова. – Краснодар, 2008. – 46 с.